

**QORA ITUZUM (SOLANUM NIGRUM L.) O'SIMLIGINING KIMYOVIY
TARKIBI VA XALQ TABOBATIDAGI AXAMIYATI****ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ И ЗНАЧЕНИЕ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ
ПАСЛЁН ЧЁРНЫЙ (SOLANUM NIGRUM L.)****CHEMICAL COMPOSITION AND SIGNIFICANCE IN FOLK MEDICINE
OF BLACK NIGHTSHADE (SOLANUM NIGRUM L.)****Do'saliyeva Safura Shavkatjon qizi***Farg'ona davlat universiteti kimyo kafedrasi o'qituvchisi,***Sultonova Muhayyoxon Asadillo qizi****Rahmatova Munavvarxon Abdurahim qizi***Farg'ona davlat universiteti talabasi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ituzumdoshlar (Solanaceae) oilasiga mansub o'simliklarning tarqalishi, biologik tasnifi hamda Qora ituzum (Solanum nigrum L.) dorivor o'simligining zaxiralari va xalq tabobatida, xususan nafas yo'li kasalliklari, tomoq og'riqlari va yallig'lanish jarayonlariga qarshi qo'llanilishi kabi xususiyatlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *o'simlik, ituzum, barg, mevasi, dorivor.*

Аннотация: *В статье рассматриваются распространение и биологическая классификация растений семейства Solanaceae, а также запасы и характеристики лекарственного растения – паслёна черного (Solanum nigrum L.) и его применение в народной медицине, в частности при заболеваниях дыхательных путей, боли в горле и воспалениях.*

Ключевые слова: *растение, паслён черный, листья, плоды, лекарственное.*

Abstract: *This article describes the distribution and biological classification of plants belonging to the Solanaceae family, as well as the stocks and characteristics of black nightshade (Solanum nigrum L.), a medicinal plant, and its use in folk medicine, particularly for respiratory diseases, sore throat, and inflammation.*

Keywords: *plant, black nightshade, leaves, fruits, medicinal.*

Ituzumdoshlar (Solanaceae) o'simliklar oilasi yer sharining tropik, subtropik va mo'tadil mintaqalarida keng tarqalgan bo'lib, taxminan 90 turkum va 2900 ga yaqin turni o'z ichiga oladi [1]. Ushbu oilaning vakillari o'tlar, butalar, chala butalar va kam hollarda kichik daraxtlar shaklida uchraydi. Barglari ketma-ket joylashgan, yonbargchasiz, gullari ikki jinsli, kosachasi va gultoji 5 bo'lakli,